

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ATOQLI OT KOMPONENTLI
FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK-STILISTIK VA
LINGVOSTATISTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
philological sciences**

G‘aybullayeva Dildora Fayzulla qizi

Ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-
stilistik va lingvostatistik xususiyatlari.....3

Гайбуллаева Дилдора Файзулла кизи

Семантико-стилистические и лингвостатистические особенности
фразеологизмов с именными компонентами в английском и узбекском
языках.....27

Gaybullayeva Dildora Fayzulla kizi

Semantic-stylistic and Linguo-statistic Features of Phraseological Units with Proper
Names in the English and Uzbek languages.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ATOQLI OT KOMPONENTLI
FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK-STILISTIK VA
LINGVOSTATISTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/Fil5050 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djusupov Mahanbet
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Mamatov Abdi Eshankulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti huzuridagi DSc.03.30.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "28" avgust soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi. G9-A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92. E-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (119/raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G9-A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "14" avgust kuni tarqatildi.

(2025 yil "14" avgust da № 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda frazeologik birliklar, ayniqsa atoqli ot komponentli frazeologizmlar milliy tafakkur va madaniy o'zlikni ifodalovchi muhim til unsuri sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday iboralar tarjima jarayonida va sun'iy intellekt tizimlarida semantik noaniqliklarga sabab bo'layotgani bois ularni chuqur o'rganish lozim. Ingliz tilidagi atoqli ot komponentli frazeologizmlar boshqa tillarga o'tishda o'zining konnotativ va stilistik yuklamasini yo'qotishi sababli ularning chog'ishtirma-lingvistik va lingvostatistik tahliliga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlarida frazeologizmlarning aniq talqinini ta'minlash uchun ularning pragmatik va funksional xususiyatlarini o'rganish zarurati ortib bormoqda.

Dunyoda atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik va lingvostatistik xususiyatlarini o'rganish zamonaviy frazeologiya, korpus lingvistikasi va tarjimashunoslikning kesishgan nuqtasida shakllanayotgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Bu yo'nalish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish hamda milliy til birliklarining xalqaro kommunikatsiyadagi o'rnini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Germaniyadagi Heidelberg universitetida ingliz, nemis va slavyan tillaridagi atoqli otli frazeologizmlarning strukturaviy va stilistik xususiyatlari bo'yicha chog'ishtirma tadqiqotlar olib borilib, ularning madaniy kodini ochib berishga e'tibor qaratilmoqda. Yaponiyadagi Vaseda universitetida esa ingliz va yapon tillarida atoqli otli frazeologizmlarning semantik parallelizmi va tarjima jarayonidagi stilistik yo'qotishlar o'rganilib, ularning sun'iy intellekt asosida avtomatik talqin qilinishdagi muammolar aniqlanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida o'zbek tilining maqomini yanada ko'tarishga, uning davlat tili sifatidagi o'zni va ahamiyatini oshirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga katta e'tibor berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, har bir tilning, jumladan, o'zbek tilining o'ziga xosligini aniqlashda, ushbu tilning xalq og'zaki ijodi namunalarida va so'zlashuv uslubida qolib ketayotgan atoqli ot komponentli frazeologizmlarini izchil o'rganish, aniq manbalarda qayd etishga hissa qo'shish, o'zbek tilida aniqlangan mazkur til birliklarini boshqa tillar bilan chog'ishtirma planda semantik-stilistik, lingvostatistik jihatdan tadqiq etishga oid ilmiy-tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud. Zero, "yuksak taraqqiy etgan demokratik davlatlarda bo'lgani kabi davlat tili butun jamiyatni, tili va millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarni yagona xalq sifatida birlashtirishga xizmat qilishi zarur"¹. Shu bois, qardosh bo'lmagan tillardagi milliy tafakkurning in'ikosi bo'lmish atoqli ot komponentli frazeologizmlarni chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarning yanada kengaytirilishi dolzarb masalalardan biri sanalmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning o'zbek tili bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigidagi nutqi, 2024-yil 21-oktyabr // <https://president.uz/oz/lists/view/7628>

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Umumiy tilshunoslik doirasida o‘zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishida Sh.Rahmatullayev, Y.D.Pinxasov, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, K.Bozorboyev, M.Dzhusupov, G.Ergasheva, A.Nasirov, Z.Teshaboyeva² kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, frazeologik tadqiqotlari asos sifatida xizmat qiladi. Xorij tilshunosligida frazeologiya fanining taraqqiyoti A.P.Kovi, K.Gabriel, S.Fidler, J.Szerszunovikz, A.Vrbink, M.Vrbink, I.Mel’čuk³ singari olimlarning tadqiqotlari bilan bog‘liq. Jahon tilshunosligida esa Sh.Balli, N.N.Amosova, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, I.A.Smirnitskiy, E.D.Polivanov⁴ kabi olimlarning ilmiy-tadqiqotlari

² Рахматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол. фан. фалс. док... дисс. автореф. – Москва, 1952. – 52 б.; Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Лексикология ва фразеология. – Тошкент, 1969. – 145 б.; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 344 б.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 297 б.; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Самарқанд, 2001. – 144 б.; Джусупов М., Кудакаева А.З., Мажитаева Ш. Фраzeология русского языка: лингвистические и методические проблемы. – Ташкент: Фан, 2008. – 223 с.; Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фраzeологизм ва паремияларида гендер аспектининг киёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2011. – 165 б.; Насиров А.А. Франсуз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фраzeологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. – Т., 2016. – 252 б.; Тешабоева З.Қ. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фраzeологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Т., 2016. – 259 б.

³ Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford University Press Inc., New York, 1998. – 130 p.; Gabriele K. Idioms and Fixed Expressions in English Language Study before 1800. – Peter Lang, 2004. – 664 p.; Fidler S. English Phraseology. – Tübingen: Narr, 2007. – 198 p.; Szerszunowicz J. On the Evaluative Connotations of Anthroponymic Idioms in a Contrastive Perspective (Based on English and Italian) // Białostockie Archiwum Językowe, 2012. – P. 293-314; Vrbinc A., Vrbinc M. Phraseological units with onomastic components: The case of English and Slovene // Revista de Lingüística Teórica y Aplicada Concepción, 2014. – № 52 (1). – P. 133-153; Mel’čuk I. General Phraseology. – John Benjamins Publishing Company, 2023. – 281 p.

⁴ Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Иностран. лит.-ры. 1961. – 394 с.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: ЛГУ, 1963. – 208 с.; Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избранные труды. М.: Наука, 1977. – 312 с.; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. для ин-тов и фак. Иностран. Яз. 2-е изд., перераб. – М.: Высш. Шк., Дубна: Центр Феникс, 1996. – 381 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Учеб. пособие для вузов по спец. Русский язык и литература. 4-

frazeologiya sohasining mustaqil fan sifatida shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda frazeonomastika sohasining o'rganilishi hamda atoqli ot komponentli frazeologizmlarning turli xususiyatlarini yoritib berishda G.S.Qurbonova, M.A.Radjabova, Z.N.Abdusamadov, O'.Xudonazarova, S.Abdullayeva⁵ kabi tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, mazkur tadqiqot ishida yuqoridagi olimlarning ishlaridan farqli o'laroq, ishning obyektini faqat frazeologizmlarni tashkil etib, tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarining boy frazeologik fondi aspektlararo tahlilga tortilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)da I.Stepanova, G.Z.Darzamanova, Z.R.Zagirova, K.T.Gafarova, G.R.Ganiyeva⁶ singari olimlar tarkibida onomastik komponent ishtirok etgan frazeologizmlarning semantik, etimologik, struktur-semantik hamda qiyosiy-tipologik tasniflanishiga oid frazeologik tadqiqotlar olib borgan.

Jahon tilshunosligida esa frazeonomastika sohasining taraqqiyotida Ye.N.Betextina, Z.V.Korzyukova, A.V.Urazmetova, O.K.Mjelskaya, V.A.Xoxlova⁷ kabi tilshunoslarning hissasi katta.

Biroq tilshunoslikda hozirgi kungacha chog'ishtirma tilshunoslik, xususan, frazeonomastika sohasida ingliz va o'zbek tillarida atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik hamda lingvostatistik tavsifiga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlar mavjud emas.

е., изд., испр. и доп. – СПб.: Специальная Литература, 1996. – 192 с.; Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – Москва: МГУ, 1998. – 260 с.; Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. Издание второе. – М., 2002. – 220 с.

⁵ Курбонова Г.С. Француз ва ўзбек тилларида ономастик компонентли фразеологизмларнинг миллий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 194 б.; Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари (инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Бухоро, 2020. – 160 б.; Абдусаматов З.Н. Инглиз ва ўзбек тилларида антропонимик компонентли фразеологик бирликларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 132 б.; Худойназарова Ў.А. Инглиз ва ўзбек тилларида мифоним компонентли фразеологизмларнинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2022. – 147 б.; Абдуллаева С.Н. Инсонни характерлашда зооним компонентли фразеологик бирликлардаги лингвопрагматик хусусиятлар (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2022. – 147 б.

⁶ Степанова И.С. Английские фразеологические единицы с флористическим компонентом. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Киев: КГУ, 1987. – 24 с.; Дарзаманова Г.З. Фразеологические единицы и паремии с антропонимами в русском, татарском и английском языках. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казан, 2002. – 24 с.; Загирова З.Р. Лексико-семантические и функциональные параметры антропонима в составе фразеологической единицы в английском языке (в сопоставлении с французским, русским и татарским). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – УФА, 2002. – 24 с.; Гафарова К.Т. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с зоонимами и фитонимами в таджикском, немецком и русском языках. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2007. – 25 с.; Ганиева Г.Р. Фразеологические единицы с компонентом именем собственным в английском, русском и татарском языках. Монография. – Нижнекамск, 2012. – 106 с.

⁷ Бетехтина Е.Н. Фразеологические библеизмы с ономастическим компонентом в современном русском языке. На фоне англ. Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1995. – 226 с.; Корзюкова З.В. Основные аспекты функционирования фразеологических единиц с именами собственными в английском языке: национально-культурная специфика. Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2003. – 234 с.; Уразметова А.В. Лингвокултурологический аспект изучения топонимов в составе фразеологических единиц (на материале английского и французского языков). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2006. – 24 с.; Мжельская О.К. Семантическая специализация и концептуализация заимствований (на материале ономастических компонентов библейской фразеологии). Дис. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 2008. – 151 с.; Хохлова В.А. Фразеологические единицы с топонимическим компонентом в английском и украинском языках: лингвокултурологический аспект. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Донецк, 2017. – 24 с.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Til va tarjima birliklarining lingvistik va ekstralingvistik masalalarini tadqiq etish" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik hamda lingvostatistik xususiyatlarini ochib berish va ularning o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

frazeologizmlar haqida bildirilgan nazariy qarashlar, fundamental tasnif mezonlarini umumlashtirish va atoqli ot komponentli frazeologizmlarni tushunish hamda tasniflash mezonlarini ishlab chiqish va frazeologizmlarning lingvokulturologik jihatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarni semasiga ko'ra guruhlash, konnotatsiya elementlariga ko'ra tahlil qilish va kontekst asosida ularning uslubga xoslanganlik darajasini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarining frazeologik fondidagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlarini chog'ishtirma tahlil etish orqali o'xshash hamda farqli xususiyatlarini asoslash;

chog'ishtirilayotgan tillarning frazeologik lug'atlari bilan ishlash hamda kelib chiqish manbasi va komponentiga ko'ra atoqli ot komponentli frazeologizmlarning lingvostatistik tavsifini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning lingvokulturologik, semantik-stilistik va lingvostatistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, chog'ishtirma, kontekstual, komponent hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

frazeologizmlarni tushunishdagi tor talqinning konseptual ustunligi semantik yaxlitlik, barqarorlik, ko'chma ma'no, ekvivalentlik va milliy-madaniy belgilar kabi kategorial xususiyatlarining farqli-davriy konnotatsiyalari va stilistik tavsiflarini aniqlash orqali dalillangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli ot komponentli "harakat-turg'unlik", "inson-jamiyat", "haqiqat-yolg'on" oppozitsion semantik juftliklar zamonaviy madaniy kodlar (stereotip, milliy xarakter, ijtimoiy rol) bilan integratsiyalashgan semantik-stilistik mezonlar asosida isbotlangan;

frazeonimlarning madaniy, tarixiy va assotsiativ qo'llanilishini aniqlashga yo'naltirilgan frazeonomastik tahlil asosida ingliz va o'zbek tillarida frazeosemantik guruhlash mezonlari hamda konnotativ-emotsional yuklamaning differensial xususiyatlari aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning chog'ishtirma statistik tavsifiga oid tarixiy-madaniy va diniy-ijtimoiy

voqelanishlarga ko‘ra tipologik tafovutlari etimologik hamda semantik-struktur mezonlar asosida aniq raqamli formulalar va jadvallar orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida atoqli ot komponentli frazeologizmlarni aniqlash, guruhlash mezonlari tavsiflandi;

chog‘ishtirilayotgan tillarda atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik jihatdan tasnifiy guruhlari aniqlandi;

ingliz va o‘zbek tillaridagi tarkibida atoqli ot qatnashgan frazeologizmlarning konnotativlik imkoniyatlari ochib berildi;

turli tizimli tillarda atoqli ot komponentli frazeologizmlarning funksional-stilistik xususiyatlari misollar bilan dalillandi;

chog‘ishtirilayotgan tillarda atoqli ot komponentli frazeologizmlarning leksikografik manba asosida chog‘ishtirma statistik natijalari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo‘yilgani, olingan xulosalarning nazariy asoslangani, ularni dalillovchi ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, to‘plangan material tahlilining ilmiy va metodologik jihatdan dalillangani, keltirilgan tahlillarning tavsiflash, tasniflash, chog‘ishtirma, kontekstual, komponent, statistik kabi usullar vositasida asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda erishilgan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli tizimli tillarda atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik tasniflangani, ularning etimologik va komponentiga ko‘ra klassifikatsiya qilinishi hamda aniq leksikografik manbalar asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning chog‘ishtirma miqdoriy ko‘rsatkichlari yoritib berilgani bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida keltirilgan nazariy xulosalar va tahlil qilingan lisoniy materiallarni turli tizimli tillarda atoqli ot komponentli frazeologizmlarni semantik-stilistik hamda lingvostatistik jihatdan tadqiq qilishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya materiallari va xulosalaridan “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Frazeologiya”, “Frazeografiya”, “Semantika”, “Stilistika” kabi fanlar bo‘yicha ma‘ruza kurslari, seminar mashg‘ulotlarini ishlab chiqish va olib borishda, dissertatsiya ishlari, monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanmalar yozish, lug‘atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik hamda lingvostatistik xususiyatlarini ochib berish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

frazeologizmlarni tushunishdagi tor talqinning konseptual ustunligi semantik yaxlitlik, barqarorlik, ko‘chma ma‘no, ekvivalentlik va milliy-madaniy belgilar kabi kategorial xususiyatlarining farqli-davriy konnotatsiyalari va stilistik tavsiflarini aniqlash orqali dalillanganligiga doir ilmiy natijalaridan “O‘zbekiston talabasi” jurnali sahifalarida, jumladan, jurnalning ta‘limga oid tayyorlangan 2024-yil 3-sonidagi “Unlocking the world of English Accents: a guide for language learners”,

4-sonidagi “Why we need global languages?”, 5-sonidagi “Vaqt “jilovlangan” kun” va “Erishuvchanlik immuniteti” kabi maqolalarda badiiylik hamda obrazlilikni ta’minlash maqsadida foydalanilgan (“O‘zbekiston talabasi” jurnalining 2024-yil 20-sentyabrdagi № 01/32-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talaba-yoshlarning matnda frazeologizmlarni qo‘llashning ahamiyati hamda matn lingvistikasi va stilistikasiga oid bilim, malaka va ko‘nikmalari oshganligi barobarida jurnal sahifalarida e’lon qilingan mavzuga doir materiallar ingliz tilini o‘qitish sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli “harakat-turg‘unlik”, “inson-jamiyat”, “haqiqat-yolg‘on” oppozitsion semantik juftliklar zamonaviy madaniy kodlar (stereotip, milliy xarakter, ijtimoiy rol) bilan integratsiyalashgan semantik-stilistik mezonlar asosida isbotlanganligi hamda frazeonimlarning madaniy, tarixiy va assotsiativ qo‘llanilishini aniqlashga yo‘naltirilgan frazeonomastik tahlil asosida ingliz va o‘zbek tillarida frazeosemantik guruhlash mezonlari hamda konnotativ-emotsional yuklamaning differensial xususiyatlari aniqlanganligiga oid natijalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining PF-201912258 – “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” (2021-2024) mavzusidagi amaliy loyihada keng foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 17-sentyabrdagi № 04/1-2499-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek adabiyotida tahlilga tortilgan manbalardan to‘plangan atoqli ot komponentli frazeologizmlar loyihaning umumiy bazasini boyitishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning chog‘ishtirma statistik tavsifiga oid tarixiy-madaniy va diniy-ijtimoiy voqelanishlarga ko‘ra tipologik tafovutlari etimologik hamda semantik-struktur mezonlar asosida aniq raqamli formulalar va jadvallar orqali isbotlanganligiga oid natijalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining IL-52 tur-21091433 O‘zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida) (2022-2023) innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 17-sentyabrdagi № 04/1-2500-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilida to‘plangan kelib chiqish manbasi xalq hayoti bilan bog‘liq etimologiyaga ega, xususan, o‘zbek realiyalari asosida shakllangan atoqli ot komponentli frazeologizmlar loyiha materiallarining takomillashishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 3 tasi xalqaro ilmiy bazalar ro‘yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 157 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati tavsiflangan, o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti ochib berilgan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari izohlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Frazeologizm va frazeologiya: turlari va yo‘nalishlari”** deb nomlanib, bob 3 fasldan iborat. Mazkur bobda frazeologiya sohasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar, rivojlanish bosqichlari, frazeologiya va frazeologizm terminlarining turlicha talqini, frazeologizmlarning tasniflanish mezonlari hamda lingvokulturologik aspektida o‘rganilish masalalari haqida so‘z yuritiladi. Frazeologiyani tushunish borasidagi tor va keng yondashuvlar soha doirasidagi makrokonsepsiya sifatida tadqiq qilinadi. Mazkur makrokonsepsiyaga ko‘ra, frazeologiyani keng ma‘noda tushunish an‘anasi tarafdorlari V.L.Arxangelskiy, N.M.Shanskiy⁸, o‘zbek tilshunosligida esa M.Xusainov, S.Muratov⁹ frazeologizmlar qatoriga proverbial frazeologizmlar (PF), obrazli iboralar, nutqiy qoliplar, aforizmlar hamda iqtiboslarni ham kiritib, bunday birliklar ham frazeologizmlar kabi sintaktik bo‘linmas, semantik yaxlit ekanligiga asoslanishadi. Ular frazeologizmlarning keng doirasi so‘z emas, balki xarakterologik xususiyatlaridan qat‘i nazar, tugallangan shaklda takrorlanadigan barcha til birliklari deb ta‘riflab, frazeologizmlarning asosiy belgilariga ma‘no yaxlitligi emas, balki ma‘no, tarkib va shaklning takrorlanuvchanligi hamda barqarorligini kiritadilar. Xorij tilshunoslaridan V.P.Jukov, N.I.Lavrov, V.I.Makarov¹⁰, o‘zbek tilshunoslaridan esa M.Ro‘ziqulova, A.Rafiyev¹¹ tor yondashuv asoschilari bo‘lib, ular frazeologizmlarning ichki mohiyatini xarakterlashda ularning obrazlilikini, tayyor holda takror qo‘llanishini, komponentlar orasidagi bog‘lanishning turg‘unligi va ma‘noning yaxlitligini asos sifatida qabul qiladilar. Bizningcha, frazeologiyani tor ma‘noda tushunish uning haqiqiy o‘zagini, yadro qismini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi, keng ma‘noda tushunish esa frazeologiyaning periferiyasini anglatadi. Frazeologik birliklar hamda paremiologik birliklar o‘rtasida aniq chegara – differensial jihatlar mavjud emasligi

⁸ Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке: Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов-на-Дону: Рост ун-та, 1964. – 315 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Учеб. пособие для вузов по спец. Русский язык и литература. 4-е., изд., испр. и доп. – СПб.: Специальная Литература, 1996. – 192 с.

⁹ Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1959. – 18 с.; Муратов С.Н. Устойчивые словосочетания в тюркских языках // Вопросы фразеологии, 1965. – С. 136-140.

¹⁰ Жуков В.П., Лавров Н.И. Фразеологизмы в системе языковых уровней. ЛГПИ им. А.И.Герцена. – М., 1986. – 160 с.; Макаров В.И. Фразеология кризиса // Фразеологизм в тексте и текст во фразеологизме (Четвертые Жуковские чтения) материалы Международ. науч. симпозиума / Отв. ред. В.И.Макаров. Новг. гос. ун-т им. Ярослава Мудрого, – Великий Новгород, 2009. 4-6 мая. – С. 374-376.

¹¹ Рўзиқуллова М. Ўзбек тилида идиомалар. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Самарканд, 1966. – 129 б.; Рафиев А. Иборалар – нуткимиз кўрки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б. 22.

ham frazeologizmlarni yanada chuqurroq o'rganish masalasining dolzarbligini belgilaydi.

Bizgacha bildirilgan fikrlarga asoslanib, paremiologik hamda frazeologik birliklarning farqli jihatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Paremalar doimo tugal mazmunni, qat'iy hukmni ifodalaydi, frazemalar esa ma'noviy to'liq tugallikni ifodalamaydi (bu xususiyat paremaning matal turigagina xos);

2. Paremalar yolg'iz holda yaxlit bir gapga teng keladi. Ular tarkibidagi har bir so'z sintaktik jihatdan alohida-alohida shakllangan bo'ladi. Frazemalar sodda tuzilishga ega bo'lib, asosan, so'zga teng bo'ladi;

3. Paremalarining asosiy qismi qo'shma gap modelida bo'lib, birinchi gapda umumiy mazmunning sababi ko'rsatilib, keyingi gapda aynan keltirilgan sabab ma'qullanadi. Frazemalar esa so'z birikmasi yoki sodda gap modelida bo'ladi;

4. Paremalar o'z asl ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham qo'llanilishi mumkin, frazemalar esa to'liq yoki qisman ko'chma ma'noda qo'llaniladi;

5. Fikrimizcha, paremalar yaxlit bir gap sifatida asosan matnning komponenti bo'lib keladi. Frazemalar esa ko'p hollarda matnning emas, gapning bir qismi sifatida qo'llaniladi.

Mazkur tadqiqot ishida *frazeologizm* termini *so'z birikmasi yoki sodda gap modelidagi qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan semantik yaxlit, struktur bo'linmas, emotsional-ekspressiv semali, nutqqacha tayyor kiritilgan sotsial-madaniy ma'lumotlarning tashuvchisi* sifatida tavsiflanadi.

Frazeologizmlar tizimidagi atoqli ot komponentli frazeologizmlar (AOKF) nafaqat frazeologiya balki onomastika sohasiga ham aloqador ekanligini inobatga olib, mazkur ikki soha uyg'unlashuvida vujudga kelgan yo'nalishni "frazeonomastika" deb nomlashni joiz deb bildik. Frazeonomastika terminini frazeologiyaning yo'nalishi sifatida qo'llashda zamonaviy rus frazeologiyasiga 2006-yil O.P.Aldinger tomonidan kiritilgan "olamning frazeonomastik tasviri" hamda "frazeonim" terminlariga asoslanildi. O.P.Aldinger tarkibida onimlar ishtirok etgan frazeologizmlarni lo'nda qilib "frazeonimlar" deb ataydi va ularni "olamning frazeonomastik tasvirining tarkibiy birligi" sifatida e'tirof etadi¹². Demak, frazeonimlarni o'rganuvchi frazeologiyaning yo'nalishini *frazeonomastika* deb atash mumkin.

Tadqiqotda asosiy e'tibor qaratiladigan komponentlari atoqli ot (onim, onomastik birlik) ekanligini inobatga olgan holda, ishda atoqli otlarning asosiy mezonlari haqida to'xtalmaslikning imkoni yo'q. Y.Avlakulovning qayd etishicha, "tildagi barcha otlar ham "onomastik kategoriya"larga to'liq mos kelmaydi, atoqli ot javob berishi lozim bo'lgan quyidagi mezon, talab va shartlar mavjud:

- a) nomning alohida olingan bir dona obyektning nomi ekanligi;
- b) individual tushuncha bilan bog'liqligi;
- c) grafik jihatdan bosh harf bilan yozilishi;
- d) tuzilishiga ko'ra so'zga yaqin turishi;

¹² Альдингер О.П. Фразеологическая картина мира в "Пословицах русского народа" В.И.Даля. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Смоленск, 2006. – С. 28.

e) o‘zga tillarga tarjima qilinmasligi”¹³.

Ushbu tadqiqotda atoqli otlar ishtirok etgan frazeologizmlar ularning tarkibidagi onomastik birliklarning yuqoridagi tamoyillariga javob bera oladigan onim komponent mavjudlarigina saralanib, tahlilga tortilgan.

Tilshunoslikda frazeologizmlarni klassifikatsiyalash hamda sistemlashtirish masalasi hozirgi kunga qadar tasniflashning uch xil: semantik, funksional va kontekstual yondashuvlari asosida ko‘plab olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Natijada mazkur fundamental klassifikatsiyalar asosida so‘nggi frazeologik tadqiqotlarda frazeologizmlar turlicha tasnif qilinib, soha ravnaqiga rivoj qo‘shmoqda. Tadqiqotimiz doirasiga kiruvchi AOKFlar ham turli ishlarda tasnif qilingan bo‘lsa-da, hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan tasniflarning aksariyat qismida onomastik ko‘lamning makroko‘lamiga mansub bo‘lgan antroponim, toponim, etnonim komponentli frazeologizmlar tahlilga tortilgan bo‘lib, AOKFlar deyarli har bir makroko‘lam ega bo‘lgan mayda ichki guruhlar, ya’ni mikroko‘lamlararo mukammal tasnif qilinmaganligi mazkur ishning dolzarbligini belgilab beradi. Bizningcha, AOKF *leksik-semantik, struktur, funksional, etimologik hamda komponent tasnif mezonlari* asosida atroflicha o‘rganilishi mumkin.

Frazeologiya va lingvokulturologiyani birlashtirib turuvchi asosiy omil til hisoblanadi. Har ikki sohada ham tilni turli rakurslarda, turli obyektlarga asoslangan holda o‘rganish muhim vazifadir. E’tirof etish o‘rinliki, aynan “til-madaniyat-inson” tizimli formulasi lingvomadaniyatshunoslik fanining obyektini hisoblanadi. V.Gumboldt fikriga ko‘ra, “til eng muhim antropologik faktordir: inson faqat tilda o‘ylaydi, his qiladi va yashaydi”¹⁴.

Tadqiqotimiz doirasida o‘rganilayotgan frazeologizmlar esa lingvokulturologiya fanining asosiy birligi hisoblangan lingvokulturologik birliklar (lingvokulturema) qatoriga kirib, har bir tilning frazeologik qatlamida shu tilda so‘zlashuvchi millatning me’yoriy-axloqiy qoidalari, milliy-axloqiy qadriyatlar hamda asrlar osha shakllangan an’analari o‘z in’ikosiga ega.

B.A.Larin “frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi” deb hisoblasa¹⁵, F.I.Buslayev nuqtayi nazariga ko‘ra, “frazeologizmlar o‘ziga xos kichik dunyo bo‘lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o‘z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir”¹⁶.

A.Mamatovning fikriga ko‘ra, “frazeologik birliklar olam manzarasi bilan assotsiatsiyaga kirishadigan obyektlarning xususiyatlarini qayd qiladi, yaxlit vaziyatni (matnni) nazarda tutadi, uni baholaydi, unga tegishli munosabatni ifoda qiladi. Frazeologik birliklar semantik jihatdan insonni va uning faoliyatini baholaydi”¹⁷.

¹³ Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик birliklarining lingvistik tadqiqi. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 58.

¹⁴ Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С. 17.

¹⁵ Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. – М., 1977. – С. 125.

¹⁶ Буслаев Ф.И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. – М.: Русский язык. 1954. – С. 37.

¹⁷ Маматов А.Э. Замоновий лингвистика (Линвомаданиятшунослик асослари). - Тошкент: Тафаккур авлоди. – 2020. – Б. 68.

Ta'kidlash joizki, "xalq hayotining ko'zgusi"¹⁸ hisoblangan frazeologizmlarning bir qismi, "onimik so'z birikmalari"¹⁹da milliy-madaniy konnotatsiya kuchli bo'lib, bunday frazeologizm tarkibidagi onim-etalon o'ziga xos milliy koloritga, madaniy kodga ega bo'ladi. AOKFlar xalq madaniyatining uzoq rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi madaniy munosabat vositalari hisoblanib, avloddan avlodga o'tmishdan xabar berib turadi. Bunday birliklarni boshqa frazeologizmlardek umumiy semantikaga ega birliklar sifatida qarab bo'lmaydi, sababi ularning komponentlari orasidagi onimlarning o'ziyiq xususiylik kasb etuvchi madaniy semalardir.

Dissertatsiyaning "**Ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlari**" deb nomlanuvchi ikkinchi bobi 3 fasldan iborat bo'lib, unda chog'ishtirilayotgan tillardagi AOKFlar semantik-stilistik jihatdan turli mezonlar asosida tahlil qilingan.

Tilshunoslikda AOKFlarning antropotsentrik mohiyati keng diapazonga ega bo'lib, asosan, ikki tomonlama namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular tarkibidagi ismlar ma'lum bir frazeologizmlarning ajralmas komponenti bo'ladi. Ikkinchidan, AOKFlarning aksariyati inson va inson bilan bog'liq masalalar hamda hodisalarni tasvirlash, baholashga qaratilgan bo'ladi. Joanna Szerszunovikzning qayd etishicha, "onimik so'z birikmalari stereotipik obraz va baholash tashuvchisi sifatida eng ko'p qo'llaniladigan birliklar hisoblanadi"²⁰.

Ingliz va o'zbek tillaridagi AOKFlarning semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan kuzatuvlarimiz natijasida har ikki tilning frazeologik fondida semantikasi, konnotatsiyasi hamda funksional-uslubiy imkoniyatiga ko'ra izomorfik va allomorfik jihatlarning mavjudligi aniqlandi. Chog'ishtirilayotgan tillarda aniqlangan AOKFlar semantik mazmuniga ko'ra: **a) inson va insonga bog'liq bo'lgan fenomenlarni xarakterlovchi; b) voqea-hodisalarni xarakterlovchi; c) predmetlarni xarakterlovchi AOKFlar** kabi yirik frazeosemantik sinflarga ajratilib, har bir guruh to'plangan misollar asosida ma'noning kichik birliklariga bo'lingan holda tahlil qilindi. Chog'ishtirilayotgan tillarda **inson va insonga bog'liq bo'lgan fenomenlarni xarakterlovchi AOKFlar** frazeosemantik guruhi insonning fizik (*mouth full of South; Xizr bilan barobar yashagan*), psixologik (*happy as Larry; Xudoga nima yozdim?!*), axloqiy-etik (*honest to God/Pete; Jonini Jabborga bermoq*), intellektual (*mad as a March hare; Aflotun miya*) hamda ijtimoiy maqomi/holati (*Rich as Croesus; Alingda Sulaymoncha quvvat bo'lmoq*) ni ifodalovchi AOKF kabi mayda guruhlarga ajratildi.

Tadqiqotda chog'ishtirilayotgan tillardagi AOKFlarning konnotativ imkoniyatlari ekspressivlik, emotivlik hamda baholash elementlariga ko'ra tahlil qilingan. Masalan, ingliz tilidagi insonning **fizik xususiyatlarini ifodalovchi**

¹⁸ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматик-чешский и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – С. 86.

¹⁹ Посовень А.Н., Фирсова Е.В. Прагматический потенциал антропонимов в немецких фразеологических единицах // Евразийский Союз Ученых. – 2015. – № 3 (11). – С. 86-96.

²⁰ Szerszunowicz J. On the Evaluative Connotations of Anthroponymic Idioms in a Contrastive Perspective (Based on English and Italian) // Białostockie Archiwum Językowe. – 2012. – С. 293-314.

AOKFlar tematik turkumiga kiruvchi *smile (grin) like a Cheshire cat* frazeologizmidagi yuqori ekspressivlik elementi o‘xshatish yordamida ifodalangan:

“Please, would you tell me”, said Alice, a little timidly, for she was not quite sure whether it was good manners for her to speak first, “why your cat grins like that?”

“It’s a Cheshire cat,” said the Duchess, “and that’s why. Pig!”

“I didn’t know that Cheshire cats always grinned; in fact, I didn’t know that cats could grin”²¹.

Mazkur atoqli atoqli ot komponentli frazeologizmning emotsionallik elementi insonning kulumsiragan chehrasini, yuz ifodasidagi hissiy holatini jest-mimika vositasida obrazli tasvirlashda yaqqol ko‘rinadi. Baholash elementiga ko‘ra *smile (grin) like a Cheshire cat* topokomponentli frazeologizmi ijobiy baho ottenkasiga ega bo‘lib, zamonaviy ingliz tilida asosan so‘zlashuv uslubida faol qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchrovchi *Fir’avn bilan o‘ltirgan* antropokomponentli frazeologizmi ham insonning fizik xususiyatini – yoshini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Mazkur frazeologizmning hozirgi kunda *Daqqiyunusni ko‘rgan* shakli qo‘llaniladi. *Fir’avn bilan o‘ltirgan* AOKFi ekspressivlikka boy bo‘lib, nutqda ma‘no kuchaytirish, bo‘rttirish bilan bir qatorda o‘ziga xos obrazlilikni ham ifodalaydi:

“...darvozabon uch yuz o‘ttizga kirgan edi. *Fir’avn bilan o‘ltirgan bachchag‘ar edi*”²²

Parchada berilgan frazeologizm salbiy baho ottenkasiga ega. Biroq bu *Fir’avn bilan o‘ltirgan* frazeologizmi har doim salbiy baho ottenkasiga ega, degan xulosani bermaydi. Bunday frazeologizmlarning baho ottenkasi faqat kontekst yordamida aniqlanadi. Ushbu frazeologizmda konnotatsiyaning ekspressivlik hamda baholash elementlari kuzatilgan bo‘lsa-da, unda emotsionallik komponenti deyarli sezilmaydi. Funktsional-stilistik nuqtayi nazardan *Fir’avn bilan o‘ltirgan* frazeologizmi kitobiy uslubga xos frazeologizm sanaladi.

Insonning psixologik xususiyatini ifodalovchi AOKFlar tahliliga e‘tibor bersak, ingliz tilidagi *Good Golly, Miss Molly, Jack the lad, Nervous Nelly/Nellie* kabi AOKFlarni yuqori ekspressivlik konnotatsiyasiga ega frazeologizmlar deyish mumkin, bunda ulardagi ekspressivlik qofiya, ritm va alliteratsiya kabi leksik hamda fonetik vositalar orqali ifodalanmoqda. Masalan:

“Good Golly, Miss Molly, sure like to ball.

Oooh, Good Golly, Miss Molly, sure like to ball.

When you’re rockin’ and a-rollin’, Can’t hear your mama call”.

Jon Maraskalko va Robert Blekvell tomonidan yozilgan mashhur rok-n-roll qo‘shig‘ining nomidan kelib chiqqan *Good Golly, Miss Molly* antroponim komponentli frazeologizmdagi ekspressivlik imkoniyatini ritmning o‘ziga xos jarangdorligi bilan izohlash mumkin. AOKFlarning okkazional uslubiy funksiyasi esa uning refren hosil qilishi bilan belgilanmoqda.

²¹ Carol L. Alice’s Adventures in Wonderland. – Illinois, 1998. – P. 82.

²² Далли достони. Эргаш Жуманбулбул ўғли. – Т.: ЎзФАН, 1942. – Б. 39.

O‘zbek tili frazeologik fondida ham insonning ruhiy holatini aks ettiruvchi AOKFlar uchraydi. Ammo bunday til birliklari unchalik ko‘p emas. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, ushbu ma‘noviy sinfga kiruvchi AOKFlarning asosiy qismini teonim komponentli frazeologizmlar tashkil qilib, bunday AOKFlarning dostonlarda qofiya, giperbola vositalari yordamida ifodalanishi mazkur til birliklari konnotatsiyasida yuqori ekspressivlikni namoyon etadi:

“...*Qulfi dilimni Xudo ochdi, musulmon bo‘ldim. Qirq chiltan bilan Rasul payg‘ambar qavm-u qarindoshingni tushimda ko‘rsatib, sening bilan meni do‘st qildi*”²³.

Parchada berilgan *Qulfi dilimni Xudo ochdi* frazeologizmi o‘z ma‘nosi bilan uyushiq bo‘lak sifatida qo‘llanilmoqda. Bunday holat frazeologizmning gradatsiya hosil qilish funksiyasi hisoblanib, u AOKFning okkazional uslubiy funksiyasini yanada yorqin yoritishga hamda matn obrazlilikini kuchliroq ochib berishga xizmat qilgan.

Bu turkumga kiruvchi frazeologizmlar bevosita insonning ruhiy holati bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli ularning asosiy qismida yuqori hissiy bo‘yoqdorlik konnotatsiyasi uchraydi. Tahlillarimiz natijasida yuqori emotsionallikka ega AOKFlarni qanday psixologik holatni anglatishiga ko‘ra ingliz tilida hayrat, g‘azab, xursandchilik, ishonch, yumshoqko‘ngillik, tushkunlik, vahima, jasurlik, qo‘rqoqlik, jur‘atsizlik, o‘zbek tilida esa hayrat, imon keltirish, mamnunlik, hayajon, jasurlik, qadarga rozi bo‘lishlik, gunohkorlik, noshukrlik, aybdorlik, umidsizlik kabi his-tuyg‘ularni ifodalovchi AOKFlar aniqlandi.

“*Get my other hat, I must hurry around to the police-station. Why wasn’t somebody looking after her, I’d like to know? For God’s sake, get out of my way or I’ll never get ready!*”²⁴.

Ushbu kontekstda qo‘llangan *For God’s sake!* frazeologizmi orqali qahramonning g‘azab otiga minganligi ifodalanmoqda. Ushbu AOKF kitobiy hamda so‘zlashuv uslubiga xos. “Proper name Idioms and their origins” (L.Shitova) lug‘atida aynan shu frazeologizmning ma‘nosini beruvchi, aslida evfemizmlar hisoblangan *For Pete’s sake, For the love of Pete* kabi til birliklari ham frazeologizmlar sifatida qayd etilgan. Lug‘at muallifining fikricha, “komponentlari Xudo va Iso alayhissalom ismi (*For Christ’s sake*) bilan bog‘liq bo‘lgan AOKFlar so‘zlovchining nimadandir juda qattiq g‘azablanganini bildiradi, chunki mazkur AOKFlarni nutqida qo‘llaydiganlar kufr yo‘liga kirib bo‘lganlar, deb hisoblanilar ekan”²⁵. Demak, aynan shu ma‘noni ifodalovchi *For God’s sake!, For Christ’s sake, For Pete’s sake, For the love of Pete* kabi AOKFlarda inson jahlining qay darajada yuqori ekanligini ochib beruvchi ma‘no nozikliklari mavjud. Bizningcha, insonning g‘azabini ifodalovchi mazkur AOKFlar uslubini aniqlashda etimologik hamda komponent mezonga tayangan holda, ularni kitobiy va so‘zlashuv uslubiga xos deyish mumkin. Har ikki uslubda ham frazeologizmning okkazional funksiyasi qahramon yoki so‘zlovchining ruhiy holatini obrazli ifodalashdan iborat.

²³ Alpomish. O‘zbek xalq ijodi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2016. – B. 29.

²⁴ Henry O. 100 selected short stories. – Wordsworth Editions, 1995. – P. 333.

²⁵ Chitova L.A. Proper Name Idioms and Their Origins. – Anthology, 2013. – P. 55.

“Obbo, Xudo urdi, endi nima qilaman! Nega aytmading, aysang tishimga saqich yopishtirib ichar edim-ku...”²⁶.

Misolda keltirilgan o‘zbek tilidagi *Xudo urdi* frazeologizmi “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da quyidagicha ma’no anglatadi: “1. Yomon vaziyatga tushmoq 2. Ish rasvo bo‘ldi”. Kontekstga e’tibor bersak, *Xudo urdi* frazeologizmi qahramonning qaltis vaziyatda ekanligini ko‘rsatmoqda. Tabiiyki, vaziyat ruhiy holatga ta’sir etmay qolmaydi. Bu holatda qahramon nutqida qo‘llangan frazeologizm badiiy-uslubiy jihatdan nutqning ta’sirchanligini va obrazli ifodalanishini ta’minlab bermoqda. Funktsional-stilistik imkoniyatiga ko‘ra o‘zbek tilida ingliz tilidan farqli o‘laroq insonning psixologik holatini ifodalovchi AOKFlar, asosan, so‘zlashuv uslubida qo‘llaniladi.

Insonning axloqiy-etik xususiyatini ifodalovchi AOKFlar ekspressivlik ingliz va o‘zbek tillarida alliteratsiya (*Lazy Laurance, Jonini Jabborga bermoq*) hamda o‘xshatish (*as patient as Job, Makkadan hoji kelganday*), allegoriya (*tight as Midas’s fist, Qori Ishkamba*) orqali ifodalanishi chog‘ishtirilayotgan tillardagi o‘xshashlik sifatida aniqlangan bo‘lsa, ingliz tilida ko‘plab uchraydigan ekspressivlik vositasi, qofiya (*Handy Andy*) o‘zbek tilidagi AOKFlar deyarli ko‘zga tashlanmaganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ammo o‘zbek tilidagi aksariyat AOKFlarda giperbola (*Xudo urgan*) frazeologizmning ekspressivlik elementini ko‘rsatuvchi vosita sifatida kuzatildi.

Quyida chog‘ishtirilayotgan tillarda insonning axloqiy-etik xususiyatlarini ifodalovchi AOKFlarni ijobiy baho ottenkasiga ko‘ra tahlil qilamiz:

“Ben, I’d like to, Honest Injun; but Aunt Polly – well, Jim wanted to do it, but she wouldn’t let him; Sid wanted to do it, and she wouldn’t let Sid. Now don’t you see how I’m fixed? If you was to tackle this fence and anything was to happen it”²⁷.

Yuqoridagi kontekstda keltirilgan *Honest Injun* AOKF semasida ingliz xalqining o‘ziga xos haqiqatparvarligi, adolatliligi hamda rostgo‘yligi yotadi. Bilamizki, to‘g‘riso‘z, har doim rost, aniq dalillarga suyangan holda so‘zlash xislatiga ega insonlar ingliz xalqida ulug‘lanadi. Mazkur etnonim komponentli frazeologizm tarkibidagi “Injun” – “Indian” leksemasining fonetik o‘zgarishga uchragan varianti hisoblanib, dastlab “Tom Soyerning sarguzashtlari” kitobida asar qahramoni, Tom nutqida berilgan. Keyinchalik bu frazeologizm o‘sha davr odamlari uchun so‘zlashuv uslubida ma’lum vaqt qo‘llanilgan. Ayni paytda, mazkur AOKF eskirgan AOKF sifatida talqin etiladi²⁸. L.Shitovaning qayd etishicha, aynan shu frazeologizmning *Honest Abe/Old Abe* kabi variantlari ham bo‘lib, AQSHning 16-prezidenti Abraham Linkolnning haqiqatparvarligi uchun xalqi tomonidan berilgan laqablaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda ham ingliz so‘zlashuv nutqida ushbu AOKF nihoyatda odil insonlar uchun metaforik ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida ham o‘ziga xos milliy-madaniy xarakterga hamda ijobiy baho ottenkasiga ega bo‘lgan AOKFlardan biri *Rabbimsan deb* teonim komponentli frazeologizmdir. Frazeologizm “muttasil katta kuch sarf qilib” kimningdir biror

²⁶ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 540.

²⁷ Twain M. *Adventures of Tom Sawyer*. – HARTFORD, 1884. – P. 19.

²⁸ Chitova L.A. *Proper Name Idioms and Their Origins*. – Anthology, 2013. – P. 74.

faoliyatga nisbatan jonkuyarlik, fidokorlik bilan yondashuvini ochib berishga xizmat qiladi”²⁹:

“O‘ziga o‘xshagan yigitlarni ham cho‘lga boshladi. Rabbimsan deb chunonam ketmon chopishdiki, hash-pash deguncha allaqancha yerni yerdan yulib olishdi”³⁰.

Kontekstdan shuni anglash mumkinki, biror faoliyatga bor vujudi bilan kirishish, jonkuyarlik qilib, biror ishga sidqidildan yondashish, ayniqsa, o‘zgalarg‘am-tashvishini o‘zinikidek deb bilish o‘zbek xalqining o‘ziga xos fazilatlaridandir. Funktsional-stilistik imkoniyatiga ko‘ra ingliz tilida ushbu ma‘noviy guruhga kiruvchi AOKFlarning uslubini aniqlashda asosan etimologik, komponent va semantik, o‘zbek tilida esa ulardan tashqari ohangdoshlik mezoniga asoslanildi. Natijada har ikki tilda ham mazkur birliklarning ham kitobiy, ham so‘zlashuv uslubiga xos ekanligi aniqlandi.

Insonning intellektual xususiyatlarini ifodalovchi AOKFlar chog‘ishtirilayotgan tillarda semasiga hamda baho ottenkasiga ko‘ra bir xil sinflarga ajratildi:

Aqllilik, donolik semasiga ega bo‘lgan ijobiy baho ottenkasidagi AOKF: ingliz tilida *Daedalian blood*, o‘zbek tilida *Xizr og‘ziga tuflagan*;

Nodonlik, jinnilik semasiga ega bo‘lgan salbiy baho ottenkasidagi AOKF: ingliz tilida *mad as a March hare*, o‘zbek tilida *To‘y tepalik ahmoq*.

Insonning intellektual xususiyatlarini ifodalovchi AOKFlar metaforik ko‘chma ma‘no asosida shakllangan bo‘lib, ularning uslubga xoslanganlik jihatini frazeologizm ichki formasining jozibadorligi mezoniga tayangan holda belgilash mumkin:

“*It was Daedalian blood that accounted for the native handiness and wit and industry of the people of Ninfaia, the father had always thought. As for Daedalus himself, he had been busy too at the time inventing the Greek alphabet in Cumae, on the other side of the peninsula*”³¹.

“*Alimardonning birgina gapi shuncha uzoq cho‘zilgan masalaga nuqta qo‘ydi. O‘ziyam Xizr og‘ziga tuflagan odam-da, aqldan ham, so‘zamollikdan ham Xudo bergan*” [So‘zlashuvdan].

Taqqoslanayotgan tillarda berilgan AOKFlar tarkibidagi onim komponent so‘zlovchi ongida muayyan tasavvur hosil qila olish imkoniyatini beradi. To‘plangan misollarimizda chog‘ishtirilayotgan tillardagi insonning aql-zakovati bilan bog‘liq bo‘lgan AOKFlarda emotsionallik elementi deyarli kuzatilmadi, ammo har ikki tilda ham mazkur til birliklarida ekspressivlik elementining nihoyatda yuqori ekanligi aniqlandi. Ingliz va o‘zbek tillarida, asosan, antroponim va toponim komponentli AOKFlarda ma‘no kuchaytiruv vositasi, metafora kabi stilistik vositalar ulardagi ekspressivlikning ifodalovchisi sifatida kuzatildi. Buni yuqoridagi tahlillarimizdan ham ko‘rish mumkin.

Insonning intellektual xususiyatlarini ifodalovchi AOKFlarning aksariyati so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, har ikki tilda ham ular so‘zlovchining tinglovchiga

²⁹ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 447.


³⁰ Ахмад С. Чўл бургути. – Тошкент: ЎзССР, 1960. – Б. 12.

³¹ Marina W. The lost father. – London: Picador, 1989. – P. 42.

nisbatan subyektiv munosabatini ko'rsatib beradi. Chunki kishining aql darajasi qaysi bosqichda ekanligini baholash va uni nutqning kerakli o'rnida qo'llash so'zlovchidan obyektivlikni talab etadi.

Insonning ijtimoiy maqomi/holatini ifodalovchi AOKFlar:

Tahlillarimiz jarayonida ingliz va o'zbek tillaridagi insonning sotsial statusi va holatini ifodalovchi AOKFlar o'rtasidagi eng katta farq misollar miqdorida ekanligida aniqlandi. Ingliz tilida mazkur ma'noviy sinfga kiruvchi AOKFlar talaygina, ammo o'zbek tilida biz tahlilga tortgan xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy asarlar hamda leksikografik manbalarda bunday misollar unchalik ko'p aniqlanmadi. Chog'ishtirilayotgan tillarda mazkur tematik guruhga kiruvchi AOKFlar quyidagicha tasnif qilindi (1-rasm):



1-rasm. Ingliz va o'zbek tillaridagi insonning ijtimoiy maqomi/holatini ifodalovchi AOKFlar tasnifi

Chog'ishtirilayotgan tillarda to'plangan misollar konnotatsiya elementlariga ko'ra tahlil qilinganda, har ikki tilda ham emotsionallik elementi mavjud bo'lgan AOKFlar deyarli kuzatilmadi. Ekspressivlik elementi esa ingliz tilida, asosan, alliteratsiya (*GI Jane*) va o'xshatish (*as American as an apple pie*), o'zbek tilida esa ma'no kuchaytiruv (*Alingda Sulaymoncha quvvat bo'lmoq*) vositasi orqali ifodalanishi kuzatildi. Ingliz va o'zbek tillaridagi insonning ijtimoiy maqomi/holatini ifodalovchi AOKFlar turli funksional-stilistik uslublarda qo'llanilishi aniqlandi. Ingliz tilida mazkur til birliklari kitobiy (*Jane Doe*), so'zlashuv (*to have an Aladdin's lamp*) va neytral (*Joe Sixpack*) uslublarda, o'zbek tilida esa kitobiy (*Alingda Sulaymoncha quvvat bo'lmoq*) va so'zlashuv (*Amir bilan shavla yemaydi*) uslublarda ishlatiladi.

Tahlillarimiz davomida har ikki tilda **voqea-hodisalar va ularga bog'liq bo'lgan fenomenlarni xarakterlovchi AOKF** semasiga ko'ra inson omili ishtirok etgan (*like trying to nail Jell-O to the wall; Boyagi-boyagi, boy Xo'janing tayog'i*) hamda inson omili ishtirok etmagan (*the Grim Reaper; Xudoning ishi*) kabi kichik semantik guruhlariga bo'lindi. Tadqiqot ishida ushbu frazeosemantik guruhga mansub aniqlangan AOKFlarning semantik, konnotativlik hamda funksional-stilistik xususiyatlari kontekst asosida tizimli ravishda ochib berildi.

Predmetlarni xarakterlovchi AOKF ingliz tilida ifodalanayotgan predmet yoki narsaning semasiga ko‘ra kiyim-kechak (*Mother Hubbard*), oziq-ovqat (*Rob Roy*), ro‘zg‘or buyumlari (*Lazy Susan*) va boshqa turdagi predmetlar (*Annie Oakley*) kabi tematik turkumlarga ajratilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida mazkur frazeosemantik guruhga mansub AOKF predmet yoki narsaning holatiga ko‘ra eski (*Amir Temurdan qolgan*), noyob (*Tuxumi Bag‘doddan kelgan*), yengil (*puf desa Buxoroga uchadigan*), omad keltiruvchi (*Alovuddinining sehrli chirog‘i*) kabi mayda sinflarga ajratilib tahlil qilindi.

Tadqiqotning **“Ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari”** deb nomlanuvchi uchinchi bobi 3 fasldan iborat va unda AOKFlarning lingvostatistik tahlili turli mezonlar yordamida ochib berilgan.

Tilshunoslikdagi matematik usullarning qo‘llanilishi amaliy tilshunoslik tarkibidagi lingvostatistika sohasining rivojlanishiga asosiy omillardan biri bo‘lib, uning pirovard vazifalariga lingvistika sohasidagi ayrim ochilmagan qirralarni statistika orqali zabt etish, lisoniy muammolarni matematik hisob-kitoblar bilan yechish kabilar kiradi. Tadqiqot ishida lingvostatistika terminiga quyidagicha ishchi ta‘rif berilgan: *Lingvostatistika amaliy tilshunoslik metodologiyasining tarkibiy qismi bo‘lib, unda ma‘lum tamoyil va mezonlarga ko‘ra o‘rganilayotgan til hodisalarining bir yoki bir necha manbalariga asoslanib, aniq statistik xarakteristikasini, miqdoriy tavsifi hamda foiz ko‘rsatkichlarini turli matematik usullar hamda jadvallar asosida ochib beriladi. Shuningdek, lingvostatistika lingvistik tadqiqotlarda qo‘llaniluvchi matematik-statistik metodlarning umumiy nomi hamdir.*

Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi AOKFlarning lingvostatistik tavsifini ochib berishda tilshunoslikda til hodisalarini o‘rganishga qaratilgan statistik usullarga kiruvchi *leksikografik statistika* hamda matematik usul hisoblangan *matematik proporsiya* usullaridan unumli foydalanildi:

$$p = \frac{m}{n} \times 100 \%$$

Bunda

p – aniqlanishi zarur bo‘lgan foiz (protsent);

n – lug‘atda berilgan umumiy frazeologizmlar miqdori;

m – umumiy frazeologizmlar orasida aniqlangan AOKFlar miqdori;

Leksikografik manba sifatida ingliz tilida “Oxford Dictionary of Idioms”³² lug‘ati, o‘zbek tilida esa “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”³³ tanlab olindi. Dastlabki tahlil natijalariga ko‘ra chog‘ishtirilayotgan tillarda tanlab olingan lug‘atlardan AOKFlarning umumiy miqdori aniqlanib, foiz ko‘rsatkichlari hisoblandi. Ingliz tili frazeologik lug‘atida jami 5200 ta frazeologizm berilgan bo‘lib, ulardan 160 tasi, ya‘ni lug‘atning 3%i AOKFdan tashkil topgan:

³² Siefring J. Oxford Dictionary of Idioms. – Oxford University press: Second edition. 2004. – 352 p.

³³ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – 636 b.

$$p = \frac{5200}{160} \times 100\% = 3\%$$

O‘zbek tilida esa umumiy frazeologizmlar soni ingliz tili manbasi bilan deyarli bir xil, ya’ni 5198 ta, kuzatilgan AOKFlar miqdori esa 54 ta. Bu miqdor lug‘atning atigi 1 %iga to‘g‘ri keladi:

$$p = \frac{5198}{54} \times 100\% = 1\%$$

Chog‘ishtirilayotgan tillar o‘rtasidagi dastlabki o‘xshashlik har ikki til frazeografik manbasiga AOKFlarning kiritilganligida ko‘rinsa, ingliz va o‘zbek tillaridagi AOKFlarning miqdor ko‘rsatkichlarini sezilarli farq sifatida keltirish mumkin (1-jadval):

1-jadval

Ingliz va o‘zbek tillarining frazeologik lug‘atlarida atoqli ot komponentli frazeologizmlarning statistik natijalari (miqdori va foiz ko‘rsatkichlarida)

№	Leksikografik manba	Umumiy frazeologizmlar miqdori	Frazeologizmlar foiz ko‘rsatkichi	Aniqlangan AOKFlar miqdori	AOKFlar foiz ko‘rsatkichi
1	Oxford Dictionary of Idioms (2004)	5200	100 %	160	3 %
2	O‘zbek tili frazeologik lug‘ati (2022)	5198	100 %	54	1 %

Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham AOKFlarning frazeologik shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chog‘ishtirilayotgan tillarda shunday omillarning tildagi ishtiroki va ularning etimologik aniq yoki noaniqlik holatiga ko‘ra AOKFlar ikkita yirik guruhga ajratildi: kelib chiqish manbasi aniq AOKFlar hamda kelib chiqish manbasi noaniq AOKFlar. Har ikki tilda ham kelib chiqish manbasi aniq bo‘lgan AOKFlarning frazeologik etimologiyasi tahlil qilinganda, ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham mazkur til birliklarining xalq hayoti, turmush tarzi, diniy hamda mifologik dunyoqarashlari asosida shakllanganligi aniqlandi. Etimologik tamoyilga ko‘ra kuzatilgan yana bir o‘xshashlik har ikki tilda hanuzgacha konkret etimologiyaga ega bo‘lmagan AOKFlar mavjud ekanligidadir. Ushbu tasnifga ko‘ra, tanlangan lug‘atlarda AOKFlarning quyidagicha statistik natijalari kuzatildi (2-jadval).

Ingliz va o‘zbek tillaridagi kelib chiqish manbasi aniq bo‘lgan AOKFlarning etimologik tahlili natijasida ular xalq hayoti, turmush tarzi, diniy manbalari va tushunchalari hamda mifologik qarashlari bilan bog‘liq etimologiyaga ega AOKFlar kabi 3 ta kichik guruhlariga ajratilib, chog‘ishtirma statistik natijalar olindi (3-jadval).

Tadqiqotda xalq hayoti bilan bog‘liq etimologiyaga ega AOKFlar *ingliz tilida* 7 ta (1. Ingliz realiyalariga asoslangan AOKFlar – 37 %; 2. Xalq adabiyoti namunalari asoslangan AOKFlar – 20 %; 3. Tarixiy voqea-hodisalarga asoslangan

AOKFlar – 20 %; 4. Xalq mashhurlarining nomlariga asoslangan AOKFlar – 8 %; 5.

2-jadval

Ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning etimologik jihatdan chog‘ishtirma statistik natijalari

№	Manba tili	AOKF umumiy miqdori	Kelib chiqish manbasi aniq AOKFlar		Kelib chiqish manbasi noaniq AOKFlar	
			Miqdori	Foizi	Miqdori	Foizi
1	Ingliz tilida	160 (100 %)	148	93 %	12	7 %
2	O‘zbek tilida	54 (100 %)	41	76 %	13	24 %

3-jadval

Ingliz va o‘zbek tillaridagi kelib chiqish manbasi aniq atoqli ot komponentli frazeologizmlarning chog‘ishtirma statistik natijalari

№	Kelib chiqish manbasi aniq AOKFlar	Ingliz tilida		O‘zbek tilida	
		Miqdori	Foizi	Miqdori	Foizi
1	Xalq hayoti bilan bog‘liq etimologiyaga ega AOKFlar	102	65 %	6	11 %
2	Diniy manbalar bilan bog‘liq etimologiyaga ega AOKFlar	31	19 %	34	63 %
3	Antik mifologiya bilan bog‘liq bo‘lgan etimologiyaga ega AOKFlar	15	9 %	1	2 %
Jami:		148	100 %	41	100 %

Xalq rivoyatlari, qo‘shiq va balladalariga asoslangan AOKFlar – 6 %, 6. Vaqt konseptiga asoslangan AOKFlar – 5 %; 7. Xalqning urf-odat va an‘analariga asoslangan AOKFlar – 3 %), *o‘zbek tilida esa 4 ta* (1. O‘zbek realiyalariga asoslangan AOKFlar – 17 %; 2. Xalq adabiyoti namunalariga asoslangan AOKFlar – 33 %; 3. Tarixiy voqea-hodisalarga asoslangan AOKFlar – 33 %; 4. Xalq mashhurlarining nomlariga asoslangan AOKFlar – 17 %) kichik guruhlarga ajratilgan holda o‘rganishning imkoni bo‘ldi.

Diniy manbalar bilan bog‘liq etimologiyaga ega AOKFlar *ingliz tilida*: a) “God” nomi bilan bog‘liq bo‘lgan AOKFlar – 35 %, b) Tarkibida “Adam” ismi qatnashgan AOKFlar – 7 %; c) Injilda nomlari zikr etilgan boshqa qahramonlar ismlari qatnashgan AOKFlar – 45 %; d) Injildagi joy nomlari asosida shakllangan AOKFlar – 7 %; e) Injildagi xalq nomlari asosida shakllangan AOKFlar – 3 %; f) Diniy xrononimlar qatnashgan AOKFlar – 3 %), *o‘zbek tilida esa*: a) “Xudo” nomi bilan bog‘liq bo‘lgan AOKFlar – 70 %, b) “Tangri” nomi bilan bog‘liq AOKFlar – 6 %; c) Qur‘oni Karimda nomlari zikr qilingan boshqa qahramon ismlari qatnashgan

AOKFlar – 6 %; d) Qur’oni Karimda berilgan joy nomlari asosida shakllangan AOKFlar – 3 %; e) Diniy tushunchalar asosida shakllangan AOKFlar – 6 %; f) Allohning boshqa ism hamda sifatlari bilan bog‘liq bo‘lgan AOKFlar – 9 % kabi kichik guruhlar asosida tahlilga tortildi va statistik natijalar ishlab chiqildi.

Antik mifologiya bilan bog‘liq bo‘lgan etimologiyaga ega AOKFlar esa *ingliz tilida 2 ta mayda guruhga* (1. Yunon mifologiyasi bilan bog‘liq AOKFlar – 8 %; 2. Rim mifologiyasi bilan bog‘liq AOKFlar – 1 %) tasniflanib, statistik natijalar olingan bo‘lsa, *o‘zbek tilida* esa bunday tasniflanish kuzatilmadi.

Chog‘ishtirilayotgan frazeologik lug‘atlarda berilgan AOKFlar tarkibidagi onim-komponentning turiga ko‘ra olib borilgan statistik tahlil natijalari *ingliz tilida* 8 ta, *o‘zbek tilida* esa 4 ta makroko‘lamga kiruvchi AOKFlar mavjudligini ko‘rsatdi (4-jadval):

4-jadval

Ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning onomastika tarmoqlariga ko‘ra chog‘ishtirma statistik natijalari

№	AOKFlarning onomastika tarmoqlariga ko‘ra guruhlanishi	Ingliz tilida		O‘zbek tilida	
		Miqdori	Foizi	Miqdori	Foizi
1	Antroponim komponentli frazeologizmlar (AKF)	58	36 %	14	26 %
2	Teonim komponentli frazeologizmlar (TeKF)	31	19 %	34	63 %
3	Etonim komponentli frazeologizmlar (EtKF)	22	14 %	-	-
4	Toponim komponentli frazeologizmlar (TKF)	21	13 %	5	9 %
5	Mifonim komponentli frazeologizmlar (MKF)	15	9 %	1	2 %
6	Biblionim komponentli frazeologizmlar (BKF)	8	5 %	-	-
7	Xrononim komponentli frazeologizmlar (XKF)	4	3 %	-	-
8	Geortonim komponentli frazeologizmlar (GKF)	1	1 %	-	-
Jami:		160	100 %	54	100 %

Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham antroponim, toponim, teonim hamda mifonim komponentli frazeologizmlar aniqlanib, ularning mikroko‘lamlararo miqdoriy ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Ingliz tili frazeonomastik birliklari tahlilida uchragan etnonim, biblionim, xrononim va geortonim makroko‘lamlariga oid frazeologizmlar o‘zbek tili manbasida kuzatilmadi.

Ingliz tilida AKFlarning 5 ta: ism, familiya, ism+familiya, laqab va taxallus, *o‘zbek tilida* esa 2 ta: ism va laqab komponentli AKF mikroko‘lamlari mavjudligi aniqlandi. TeKFlar *ingliz tilida* teoforonim, teoantroponim, teotoponim, teoetnonim va teoxrononim kabi 5 ta, *o‘zbek tilida* esa teoforonim, teoantroponim hamda teotoponim kabi 3 ta mikroko‘lam doirasida statistik tahlilga tortildi. *Ingliz tili* frazeografik manbasidagi TKFlarning statistikasini ishlab chiqishda 6 ta mikroko‘lam: astionim, xoronim, godonim, urbanonim, komonim va potamonim,

o'zbek tilida esa 2 ta mikroko'lam: astionim hamda xoronim topokomponentli frazeologizmlar kuzatildi. MKFlarning *ingliz tili* materialida 3 ta: mifoantroponim, mifotoponim va mifozoonim, *o'zbek tili* materialida esa faqat 1 ta: mifozoonim komponentli frazeologizmlar kabi ichki sinflari aniqlanib, ular asosida mikroko'lamlararo statistik natijalar olindi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi AOKFlarning lingvostatistik xarakteristikasini ochib berishga qaratilgan chog'ishtirma tahlillarimiz har ikki til frazeologik fondi tarkibida AOKFlar mavjud ekanligini ko'rsatdi. AOKFlar har bir xalq haqida umumiy tasavvurlarga ega bo'lish imkonini beruvchi til birliklari ekanligi statistik natijalar bilan asoslandi. Har bir til leksik qatlamining frazeologik tarkibi turlicha bo'lib, chog'ishtirilayotgan til manbalariga e'tibor qaratilganda, ularda AOKFlarning nafaqat miqdor, balki onomastik ko'lam jihatdan ham farqlanishi ma'lum bo'ldi.

XULOSA

1. Bugungi kunga qadar xorij tilshunosligida ham turkiy tilshunoslikda ham frazeologiya sohasining maxsus kategorial (yetakchi) belgilarga ega birliklari hisoblangan frazeologizmlarning nazariy ta'rifiga doir barcha tillarda so'zlashuvchilarga mos, tadqiqotchilar tan olgan, yagona va mukammal ta'rifning mavjud emasligi tufayli tilshunoslikda "frazeologizm" hamda "frazeologiya"ni tushunishning tor va keng yondashuvlari paydo bo'lgan.

2. Frazeologiyani tor ma'noda tushunishda faqatgina frazeologik birliklar nazarda tutilsa, uni keng yondashuv asosida tushunish frazeologiyani obyektiga paremiologik birliklarni ham kiritish konsepsiyasi bilan izohlanadi. Bizningcha, frazeologiyani tor ma'noda tushunish uning yadrosini ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun frazeologiyani obyekt doirasiga paremiologik birliklarni kiritish frazeologizmlarning haqiqiy o'ziga xos xususiyatlarini mufassal ochib berishga to'sqinlik qiladi.

3. Onomastika va frazeologiya fanlarining uyg'unlashuvi natijasida shakllangan yo'nalish – frazeonomastikada AOKFlar rakurslararo tadqiq qilinadi. AOKFlar shunchaki frazeologizmlar emas, frazeonomastik birliklar yoki frazeonimlar hisoblanadi. Bunday birliklar tarkibidagi onimlar madaniy koloritga ega bo'lgan komponent bo'lib, ular har bir tilda o'ziga xos unikallikning takrorlanmas tashuvchisi sifatida xizmat qiladi.

4. Ingliz va o'zbek tillaridagi AOKFlarni semasiga ko'ra frazeonomastik guruhlariga bo'lish, konnotatsiyasidan kelib chiqib, ularda ekspressivlik, emotsionallik va baholash elementlarini aniqlash, funksional-stilistik jihatdan qo'llanilish uslublarini kontekst yordamida tahlil qilish mazkur til birliklarining semantik-stilistik xususiyatlarini yanada batafsil ochib berish imkoniyatini beradi.

5. Chog'ishtirilayotgan tillardagi AOKFlarning semantik-stilistik tahlili jarayonida ikki tilda ham "Inson va unga bog'liq bo'lgan fenomenlarni xarakterlovchi AOKFlar" deb nomlangan eng yirik frazeosemantik guruh insonning fizik, psixologik, axloqiy-etik, intellektual hamda sotsial status/holatini xarakterlovchi AOKFlar kabi beshta mavzuviy sinflarga ajratilgan holda o'rganildi.

Semasiga ko‘ra AOKFlarning “Voqea-hodisalarni xarakterlovchi AOKFlar” hamda “Predmetlarni xarakterlovchi AOKFlar” kabi guruhlarini ham aniqlanib, ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham har bir frazeosemantik guruhni tematik turkumlarga ajratish imkoniyati mavjudligi ma‘lum bo‘ldi.

6. Ingliz va o‘zbek tillarida AOKFlarning konnotativlik tamoyili yordamida mazkur til birliklarida ekspressivlik alliteratsiya, qofiya, ma‘no kuchaytiruv, o‘xshatish orqali, emotsionallik jest-mimika, undov so‘zlar ishtiroki orqali ta‘minlanadi. Shuningdek, AOKFlar baho o‘tkazishiga ko‘ra ingliz tilida ijobiy, salbiy va neytral, o‘zbek tilida esa ijobiy va salbiy bo‘lishi ma‘lum bo‘ldi. Ingliz tilidagi neytral baho o‘tkazishiga ega bo‘lgan “Predmetlarni xarakterlovchi AOKFlar” o‘zbek tilidagi ushbu frazeonomastik guruhga mansub AOKFlarning ham yo ijobiy, yo salbiy baho bo‘yog‘iga egaligi bilan farqlanadi.

7. Chog‘ishtirilayotgan tillarda AOKFlar, asosan, so‘zlashuv uslubining faol leksik tarkibini tashkil etishi kuzatilgan bo‘lsa-da, har ikki tilning kitobiy uslubga xoslangan AOKFlari ham tahlillarimiz davomida uchradi. Biroq hech qanday uslubiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lmagan, nominativlik belgisi yuqori bo‘lgan AOKFlar faqat ingliz tili materiallarida ko‘zga tashlandi. O‘zbek tilidagi AOKFlarda ingliz tili AOKFlariga qaraganda simvollik funksiyasi kuchliroq bo‘lib, ular nutqda metaforik ko‘chim orqali so‘zlovchi ongida aniq tasavvurni gavdalantirishga xizmat qiladi. Ingliz tili AOKFlarida esa refren funksiyasining yuqoriligi ma‘lum bo‘ldi. O‘zbek tilida kuzatilgan AOKFlarda gradatsiya va ellipsis hodisalari ingliz tili misollarida deyarli kuzatilmadi.

8. Ingliz va o‘zbek tillaridagi 5000 dan ortiq frazeologizmlar jamlangan lug‘atlardagi AOKFlarning chog‘ishtirma statistik tahlil natijalariga ko‘ra “Oxford Dictionary of Idioms” lug‘atida jami 160 ta, ya‘ni 3 %, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da esa 54 ta, ya‘ni 1 % AOKFlar aniqlandi. To‘plangan AOKFlarning etimologik statistikasi esa ingliz tilida 148 ta, o‘zbek tilida esa 41 ta AOKFlarning kelib chiqish manbalari aniq ekanligini ko‘rsatdi. Har ikki til leksikografik manbasida ayrim AOKFlarning kelib chiqish manbasi noma‘lum ekanligi aniqlandi. Bunday AOKFlar ingliz tilida 12 ta, o‘zbek tilida esa 13 tani tashkil etdi, biroq bu miqdor ko‘rsatkichlari foizga aylantirilganda sezilarli farq ko‘zga tashlandi. Ingliz tilida aniqlangan AOKFlarning 7 %i aniq etimologik tarixga ega emas, o‘zbek tilida esa ushbu ko‘rsatkich ingliz tilinikiga qaraganda 3.5 baravar ko‘p, ya‘ni 24 %ni tashkil etadi.

9. Ingliz va o‘zbek tillarida kelib chiqish manbasi aniq bo‘lgan AOKFlarning izomorfik miqdoriy ko‘rsatkichlari faqat diniy manba hamda tushunchalar bilan bog‘liq etimologiyaga ega AOKFlarda uchraydi, ya‘ni ingliz tilida 31 ta, o‘zbek tilida esa 34 ta. Statistik farqning yuqori darajasi chog‘ishtirilayotgan tillardagi kelib chiqish manbasi xalq hayoti bilan bog‘liq AOKFlarga tegishli bo‘lib, ingliz tilidagi bunday AOKFlar o‘zbek tilidagiga qaraganda 17 baravarga ko‘p: ingliz tilida 102 ta (65 %), o‘zbek tilida 6 ta (11 %). Mifologik manba va tushunchalar bilan bog‘liq etimologik tarixga ega AOKFlar esa o‘zbek tilida ingliz tilidagiga qaraganda 15 baravarga kam, ya‘ni ingliz tilida 15 ta (9 %), o‘zbek tilida 1 ta (2 %).

10. Chog‘ishtirilayotgan tillarda antroponim, toponim, teonim va mifonim makroko‘lamlari har ikki til tarkibining frazeologik qatlamida mavjud bo‘lib, ingliz

tilida AKFlar, o'zbek tilida esa TeKFlar eng yuqori ko'rsatkichga ega. Ingliz tilida eng kam kuzatilgan GKF (1 ta=2 %) o'zbek tilida mavjud emasligi aniqlandi. O'zbek tilidagi eng kam miqdorda aniqlangan MKF (1 ta), ingliz tilida 15 tani tashkil etadi. Har ikki tilda aniqlangan toponimlar miqdor jihatdan farqlanadi: ingliz tilida 21 ta (42 %, bunda: 160=100 %), o'zbek tilida 5 ta (40 %, bunda: 54=100 %). Ingliz tili AOKFlaridan farqli ravishda o'zbek tili AOKFlarida bibliionim, geortonim, etnonim va xrononimlarning frazeologizm komponenti sifatidagi ishtiroki kuzatilmadi. Qayd etilgan lingvostatistik natijalarga ko'ra chog'ishtirilayotgan tillarning statistikasi haqida umumiy xulosaga kelish to'g'ri emas, bunda statistik tahlillar har bir tildagi bittadan leksikografik manbaga asoslanganligi hamda ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham haligacha biror bir manbaga kiritilmagan, xalq orasida og'izdan-og'izga o'tib yurgan AOKFlar ham mavjudligini unutmaslik lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03.30.2019.Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

ГАЙБУЛЛАЕВА ДИЛДОРА ФАЙЗУЛЛА КИЗИ

**СЕМАНТИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С ИМЕННЫМИ
КОМПОНЕНТАМИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под № В2024.3.PhD/Fil5050.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Джусупов Маханбет
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хайруллаев Хуршиджон Зайниевич
доктор филологических наук, профессор

Маматов Абди Эшанкулович
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный университет
востоковедения**

Защита диссертации состоится "28" августа 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03.30.2019.Fil.27.01 при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Малая кольцевая дорога, Г9-А, дом 21. Тел.: (99871) 230-12-91. Факс: (99871) 230-12-92. электронная почта: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована по номеру 119). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, ул. Малая кольцевая дорога, Г9-А, дом 21. Тел.: (99871) 230-12-91. Факс: (99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации распространен "14" августа 2025 г.

(Протокол реестра рассылки № "23" от 14 августа 2025 г).



И.М.Тухтасинов
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
док. пед. наук, профессор

Х.Б.Самигова
Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
док. филол. наук, профессор

Ж.А.Якубов
Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению учёных степеней,
док. филол. наук, профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире языка фразеологические единицы, особенно фразеологизмы с компонентом имени собственного, являются важными языковыми элементами, выражающими национальное мышление и культурную идентичность народа. Поскольку фразеологизмы порождают и семантическую неоднозначность как внутри одного языка, так и в межкультурной коммуникации, в процессе перевода, то является проблемой их глубокое изучение по различным аспектам теории языка и контрастивной лингвистики. В связи с тем, что фразеологизмы с компонентом имён собственных в английском языке нередко теряют свою смысловую и стилистическую нагрузку при заимствовании другими языками, то возрастает потребность в их изучения по конкретным аспектам науки о языке. Для обеспечения точной передачи значений фразеологизмов в процессе перевода в целом и на основе искусственного интеллекта в частности возрастает необходимость в изучении их прагматических и функциональных особенностей.

В современном мире изучение семантико-стилистических и лингвостатистических особенностей фразеологизмов с компонентом имени собственного является одним из важных научных направлений, формирующихся на стыке современной фразеологии, корпусной лингвистики и переводоведения. Такой подход имеет большое значение при анализе взаимосвязи между языком и культурой и определении роли национальных языков в процессе межкультурной коммуникации. В Гейдельбергском университете в Германии проводятся сопоставительные исследования структурных и стилистических особенностей фразеологизмов с именами собственными в английском, немецком и славянских языках, и уделяется большое внимание раскрытию их культурного кода. В университете Васэда в Японии изучаются семантический параллелизм фразеологизмов с именами собственными в английском и японском языках и стилистические недочёты в процессе перевода, выявляются и анализируются проблемы их автоматической интерпретации на основе искусственного интеллекта.

В условиях стремительных реформ, осуществляемых в Республике Узбекистан в последние годы, большое внимание уделяется дальнейшему повышению функционированию государственного (узбекского) языка, расширению масштабов научных исследований на нём. С этой точки зрения, при определении специфики каждого языка, в том числе узбекского, существует необходимость последовательного изучения фразеологизмов с компонентом имени собственного, которые сохраняются в образцах устного народного творчества и в современном разговорном стиле, что необходимо для дальнейшего углубления научных исследований, связанных с семантико-стилистическим и лингвостатистическим анализом этих языковых единиц как на материале узбекского языка, так и в сопоставительном плане с другими языками. Ведь “как и в высокоразвитых демократических государствах,

государственный язык должен служить объединению всего общества, всех граждан государства, независимо от их языковых и национальных особенностей, в единый народ”¹. Поэтому дальнейшее расширение научных исследований, посвященных полиаспектному анализу фразеологизмов с компонентом имени собственного отражающих особенности национального мышления как в родном, так и в неродном языках, является одной из актуальных задач современного языкознания.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит для реализации задач, определенных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: № УП-5847 от 8 октября 2019 года “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, № УП-6084 от 20 октября 2020 года “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране”, № УП-60 от 28 января 2022 г. “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 19 мая 2021 года № ПП-5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан,” постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 312 от 19 мая 2021 года “О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков”, а также других нормативно-правовых актов, касающихся проблемы нации, образования.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан “Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. Становлению и развитию фразеологии в республике в рамках общего языкознания, сопоставительной лингвистики оказали существенное влияние теоретические взгляды таких ученых, как Ш.Рахматуллаев, Я.Д.Пинхасов, А.Маматов, Б.Юлдошев, К.Бозорбоев, М.Джусупов, Г.Эргашева, А.А.Насиров, З.К.Тешабоева². Прогресс

¹ Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева с праздничным поздравлением народу Узбекистана по случаю праздника узбекского языка, 21 октября 2024 года // <https://president.uz/ru/lists/view/7628>

² Рахматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол. фан. фалс. док.... дисс. автореф. – Москва, 1952. – 52 б.; Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Лексикология ва фразеология. – Тошкент, 1969. – 145 б.; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 344 б.; Юлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 297 б.; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутки фразеологизмлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Самарқанд, 2001. – 144 б.; Джусупов М., Кудакбаева А.З., Мажитаева Ш. Фразеология русского языка: лингвистические и методические проблемы. – Ташкент: Фан, 2008. – 223 с.; Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг киёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2011. – 165 б.; Насиров А.А. Франсуз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. док. ...

